

***NUTQ TOVUSHLARINI O'RGANISHDA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH***

***Amirkulova Zebuniso Mustafakulovna.***

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*“Pedagogika” kafedrasi dotsenti*

***Nazarova Asal Maxmatamin qizi.***

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*magistranti.*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada nutq jarayonida nutq tovushlarining o'zgarish xususiyatlari va ularni o'rganish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *fonetika, nutq tovushlari, innovatsion texnologiyalar.*

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim — ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh, qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash jarayoni mustaqil O'zbekiston davlatining ta'lim-tarbiya tizimida umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, amaldagi boshlang'ich ta'lim fanlari o'qitishga asoslangan ta'lim jarayoni bo'lib, uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzda o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan hamda obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishdan iborat.<sup>1</sup>

Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad — aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir.

Axborot texnologiyalarining o'qituvchi va o'quvchi uchun ahamiyatli jihatlari quyidagilar:

1. O'quvchining diqqatini jamlash;
2. Ma'lumot to'g'risidagi tasavvurni kengaytirish;

---

<sup>1</sup> Ishmuhammedov.R.L va boshqalar.Ta'limda inovatsion texnologiyalar.-T, Iste'dod , 2008.

3. Izlanuvchanlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyatga kirishish;
4. O‘z-o‘zini baholash. O‘qituvchi faoliyatida axborot texnologiyalardan foydalangan holdagi darslarning o‘rni quyidagilarda aks etadi:
5. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash;
6. O‘quv materialini mazmun-mohiyatining yorqin va ishonarli bo‘lishini ta’minlash;
7. Berilayotgan axborot ko‘lamini oshirish;

Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi jarayonini o‘rganishga yetakchi tilshunos olimlar turlicha yondashgan. Jumladan, tilshunos olim *R.Sayfullayeva* (“Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, T-2009,4,26-b) ham nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi hodisasini kombinator va position tovush o‘zgarishlariga ajatgan holda, quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: “Fonema nutqda voqelanar ekan, uning varianti nutqiy sharoit (yonma-yon kelgan tovushlar yoki qo‘shimchalar ta’siriga uchrashi) tufayli turlicha namoyon bo‘ladi. Natijada tovush so‘z mohiyatida bo‘lmagan xossalarga ega bo‘ladi. Ayrim tovush yondosh tovushga moslashadi, ayrimida o‘zgarish kuchayib, boshqa tovushga almashib ketadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilan birgalikda, juftlikda, guruhlarda ishlashda juda ko‘plab interfaol metod va mashqlardan “Guruhlarda ishlash”, “Taqdimot», yangi mavzuni bayon qilishda “Kichik ma’ruza”, “Rolli o‘yin”, “Aqliy hujum”, “Charxpalak” metodlaridan foydalanishimiz mumkin. Bunda o‘quvchilar ta’lim olish jarayonida guruhlarda, hamjihatlikda ishlaydilar, mustaqil bajaradilar va eslab qoladilar. Bunda birinchi navbatda o‘quvchilarda do‘stona kelishuv» va hayotiy ko‘nikmalar shakllanadi.

Jumladan, mavzuni o‘rganish jarayonida quyidagi texnologiyadan quyidagicha foydalanish mumkin:

#### **“FSMU” mantiqiy fikrlashga o‘rgatuvchi texnologiya**

Ushbu texnologiya biror bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda o‘quvchi talabalarni, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatishga xizmat qiladi.

«Nutq jarayonida undoshlarning jarangsizlashuvi omili sabablari nimada?» degan savol muhokamaga qo‘yilgan.

F	Fikringizni bayon eting	Talaffuz jarayonida jarangli undoshlar jarangsiz tarzda talaffuz qilinadi.
---	-------------------------	--

<b>S</b>	Qarorning sababi	Dars jarayonlarida tovush o'zgarishlari orqali hosil bo'lgan so'zlarning to'g'ri talaffuz qilinishini o'rganish lozim.
<b>M</b>	Misol	Kitob-kitop, maktab-maktab, obod-obot, mard-mart;
<b>U</b>	Xulosa	Talabalar hutq jarayonida tovushlarning o'zgarishini yaxshi bilishlari lozim va yozma nutqda jaranglisini yozishlari lozim.

Yuqorida aytilgan fikrlarni xulosa qilib, ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish haqida to'xtalib o'tildi. Bu albatta ta'lim samaradorligini oshishiga xizmat qiladi, hamda o'quvchilardagi shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga, ulardagi iqtidorning yanada yaqqol namoyon bo'lishida, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarining shakllanishiga va mavzularni yuqori darajada o'zlashtirib olishlariga yordam beradi. Oquvvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi, hamda talabalarning ko'proq o'z ustilarida ishlash ma'suliyatini oshiradi. Chunki, interfaol metodlarda o'qituvchi ta'yyor bilimni bermaydi, u talabalarni to'g'ri yo'l sari yo'naltiradi. Bunda ta'lim oluvchilarning o'zlarini o'quv faoliyatining sub'ekti sifatida his qilishlari, o'z ustida ishlashlari, o'z-o'zini rivojlantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ishmuhammedov R.L va boshqalar. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.-T, Iste'dod , 2008.
2. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
3. Jamolxonov X . Hozirgi o'zbek adabiy tili .,T-2004.
4. R. Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili".,T-2009